


PSIXOLOGIK MAZMUNDAGI ASARLAR TARJIMASIDA EKVIVALENTLIK MASALASI (Hindiy tildagi asarlar misolida)

 <https://doi.org/10.5281/zenodo.7455113>

Iroda FATXUTDINOVA,

TDSHU o‘qituvchisi, Toshkent, O‘zbekiston

Tel: +99890 9182218;

E-mail: Irodaislomzoda7@gmail.com

Annotatsiya. *Tarjimashunoslikda psixologik yo‘nalish va uning ekvivalentlik muammolari bugungi kunga qadar yangilik bo‘lib hisoblanadi. Tadqiqotimizning maqsad va vazifalari sifatida biz tanlab olingan hikoyalarda foydalangan psixologik belgilar tarjimasini o‘rganish va undagi obrazlar talqini borasida fikr yuritib, ekvivalentlik masalalari doirasida tahlil qildik.*

Kalit so‘zlar. *monolog, dialog, inson ruhiyati, psixologik tahlil, nutqiy xarakteristika, frazeologik birliklar.*

Annotatsiya. *Проблемы психологической направленности и ее эквивалентности в переводе до сих пор остаются новинкой. Сели и задачи нашего исследования - изучить перевод психологических символов, используемых в отобранных рассказах, и подумать над интерпретацией образов в них, проанализировать особенности языка в рамках вопросов эквивалентности.*

Ключевые слова. *монолог, диалог, психика человека, психологический анализ, речевые характеристики, фразеологические единицы.*

Abstract. *The psychological orientation and its equivalence problems in translation studies are still a novelty. As the goals and tasks of our research, we studied the translation of the psychological symbols used in the selected stories and thought about the interpretation of the images in them, and analyzed the features of the language within the framework of equivalence issues.*

Keywords. *monologue, dialogue, human psyche, psychological analysis, speech characteristics, phraseological combinations*

KIRISH

Tarjimashunoslik fani yurtimizda yuzaga kelgan yangi tarixiy voqelik munosabati bilan hal qilinishi lozim bo‘lgan masalalarni faqatgina ozod xalq manfaati, milliy istiqloq g‘oyasi talablari darajasida tahlil va tadqiq etishga ma’suldir. Bu esa tadqiqotchidan tanlagan muammolarning muhimligi, dolzarbligini hamda tadqiq etish usullarining yangiligiga ko‘ra

jahon andazalariga mos kelishi va ayni chogʻda milliy oʻziga xosligini toʻla namoyon qilishini talab etadi. Biz yoshlar ham ana shu jamiyatning aʼzosi sifatida vatanimiz taraqqiyotiga oʻz bilim va tafakkurimiz, izlanishlarimiz bilan maʼlum maʼnoda oʻz hissamizni qoʻshmogʻimiz lozim. Chunki, har qanday buyuk kashfiyot zamirida oddiy haqiqat yaʼni, bilim, aql-zakovat va jiddu-jahd yotadi.

Tarjimashunoslikda psixologik yoʻnalish va uning ekvivalentlik muammolari bugungi kunga qadar yangilik boʻlib hisoblanadi. Shu bois ham uning dolzarbligi shubhasizdir. Psixologik belgilar tarjimasini oʻrganishda biz “Jaynendraning hikoyalari” toʻplamidan tanlab olingan “Hurmatli boshliq” (महामहिम) va “Ogʻriq” (कष्ट) nomli hikoyalardan foydalangan holda, undagi obrazlar talqini borasida fikr yuritib, til hususiyatlarini ekvivalentlik masalasi doirasida tahlil qildik.

Hindiston yozuvchisi Jaynendra Kumarning hikoyalarida oilaviy mavzular, ota va bola munosabatlari, hind aholisining hayoti va undagi ichki nizolari, turli tabaqalar va albatta, muhabbat mavzusi koʻtarilgan boʻlib, tanlangan ushbu ijtimoi hamda psixologik mavzular tarjimashunoslikda ekvivalentlik masalasi nuqtai nazaridan maxsus oʻrganilmagan.

Asosiy qism. Gʻarb adabiyotida chuqurlashib borgan psixologizm tahminan XX asrning 20-yillaridan koʻzga tashlanadi. Gʻarbda Tomas Mann va boshqa bir qancha yozuvchilar ijodida intellektual (aqliy, idrokiy) romanlar paydo boʻla boshlangan; masalan, Xeminguey hikoyalarida uchraydigan *podtekst* yaʼni matn orqasidagi matn va ichki monolog alohida ahamiyatni kasb etadi.

Tanqidchilar Hindistonda psixologik yoʻnalishning yetilish vaqtini esa Hindiston oʻz mustaqilligiga erishgandan keyingi davr bilan bogʻlashadi. Vaholangki bu yoʻnalish vakillari-yozuvchilarining ilk romanlari mustaqillikka erishishidan ancha ilgari paydo boʻlgan. Masalan, Agʻeyning “Shekxar” va Jaynendra Kumarning “Sunita” (1926 y) asarlari buning yaqqol misolidir. Hindiy psixologik roman va hikoyalar oʻz rivojida gʻarb va rus tajribasini olgan, biroq, bu Hindiston tarixiy, madaniy muhitda va hind estetikasiga mos boʻlgan oʻz qonunlari boʻyicha rivojlanayotgan mustaqil yoʻnalishdir. Hind tanqidchilarining fikricha, yangi psixologik nasrning asosiy belgilari quyidagilardan iborat:

1) “Vaqtga murojaat” xususiyati: asardagi harakat davrini qisqartirishga moyillik. Bir kecha-kunduz, gohida bir necha soatlar yozuvchining fikrini o’sha chuqurlik bilan ifodalab beradi, tashqi harakatning qisqartirilishi esa asosiy diqqat va e’tiborni asarning muammosiga qaratishga yordam beradi.

Psixologik nasrda xususan, hikoyada “vaqt” katta zichlikka ya’ni xajmga ega bo’ladi. Hind tanqidchisi Vats’yanning yozishicha, u vaqtni “bir daqiqa” sifatida ko’radi va “vaqt kristali” tushunchasidan foydalanadi. Jaynendra Kumar haqidagi maqolasida u “tasvirni emas, hayot essensiyasini/“*yuqori quyuqlikka ega modda*” deb beradi [1,110].

2) Z.Freyd, K.Yung, M.Adlerlarning psixoanalitik ta’limoti bilan tanishish va psixologik tahlil maktabining ta’siri seziladi. XX asr psixologiyasi kashfiyotlari inson fe’l-atvorining ayrim sababchi elementlarini aniqlashga yordam berdi. Tanqidchi R.Bxatnagar ta’kidlashicha, romanistlar bu elementlarni o’z ijodiyot laboratoriyasiga kiritdilar va bu fakt ularning mahoratiga ijobiy ta’sir ko’rsatdi.

Psixoanalitik मनोविश्लेषण “*manovishleshan*” (psixologik tahlilga oid) va ijtimoiy romandan farqli bo’lgan psixologik roman va hikoyada ichki va tashqi, shaxsiy va ijtimoiy hayotning aloqalari ajralmas bo’lib namoyon bo’ladi.

3) Psixologik asar muallifining diqqat-e’tibori shaxsiyatning ichki dunyosiga, uning mohiyatini aniqlashga qaratiladi. Bunday yo’nalish व्यक्ति-केंद्र “*vyakti-kendr*” (*shaxsiyatga yo’naltirilgan*) termini paydo bo’lishiga ta’sir qildi.

Hind tanqidchilari, shular qatorida hind yozuvchisi va tanqidchisi Govind Mishra, hindiy romanchilikda psixologik yo’nalishning kelib chiqish tarixiga nazar tashlab, uning paydo bo’lishiga 3ta omillarni sabab qilib ko’rsatadilar: syujetning estetik ma’noziligi qiymatining tushib ketishi, ijodiy tajriba (*prayog*) qiymatining kashf etilishi va yozuvchining o’zini erkin his qilishi hamda psixologiyadagi kashfiyotlardan kelib chiqqan yangi texnik imkoniyatlarga ega bo’lish omilini sanab o’tadi.

Psixologik nasrchilik, Sarveshvar Dayal Saksena (nasriy janrlarda ham ijod qilayotgan, xususan, “सोया हुआ जल” *Soya xua djal* hikoyasini yaratgan) ning fikriga ko’ra, hayotning mohiyatini, ya’ni ichki, eng

tubdagi va harakat natijasida yuzaga keladigan jihatlarining o‘zaro aloqalarini anglashga intiladi. R.Bxatnagar ham shu haqda shunday yozadi: “Tashqi harakatlar, ya’ni insonning hulq-atvori, ongda bo‘lib o‘tayotgan ichki jarayonlarni aks ettiruvchi omili sifatidagina yozuvchini qiziqтира oladi.” Hindiy adabiyotida, ko‘pincha kichik janr – hikoyada alohida aksini topgan psixologik tahlil yo‘nalishi “chuqur” jarayonlar bilan shug‘ullanadi. Ya’ni hind tanqidchilari qarashlarida psixologizm muammosiga qaratilgan nazariy muammolar mavjud. Bular:

a) g‘oyani amalga oshirish usuli sifatida “tasvirlash”ni inkor etish;

b) voqealar bir-biri bilan bog‘liq va birin-ketin bayon qilinishi shart emas; v) ichki mantiqiy tizim syujetning rivojlanib borishini boshqaradi, tashqi ko‘rinishdan esa bu tizimni tashkil qiluvchi qismlari bir biriga aloqasi yo‘qdek ko‘rinadi.

Psixologik nasrda turtki beruvchi kichik sabab “qo‘zg‘olon” ko‘tarishga zamin yaratadi. Psixologik yo‘nalishining paydo bo‘lish sababi bu insonning ichki dunyosi va harakat dunyosi o‘rtasidagi doimiy nizoli ziddiyat, qarama-qarshilikdan kelib chiqqan faktdir.

Hind adabiyotida bugungi kunda ham mavjud bo‘lgan turli yo‘nalishlar aynan shu davrda vujudga keladi. Bunday oqimlar sirasiga *chxayavad*, *romantizm*, *pragativad*, (taraqqiyparvar), *realizm*, *mistitsizm* (tasavvuf), *eksperimen-talizm*, *modernizm* va *psixologizmlarni* kiritish mumkin. Shuningdek, bu davrda siyosiy roman janri bilan birga, ijtimoiy-psixologik roman janri ham keng qo‘llanila boshlagan. Unda kurashdan chetlangan odamning ruhiy iztiroblari tasvirlanadi. Bu janr R.Tagor, J.Kumar, I.Joshi va Sh.Chottopadxaylar qalami ostida o‘zining kamolot darajasiga ko‘tarildi. Jaynendra Kumar Tagor, Nirala, Chottopodxay yozuvchilari bilan birga taraqqiyparvar harakatini qo‘llab-quvvatlagan edi. Bulardan tashqari 30-40 yillarda modernizmning har xil shakllari ham Jaynendra Kumar ijodiga o‘z ta’sirini o‘tkazgan. Lekin Jaynendra Kumar o‘z faoliyatini 30-yillarda boshlab, uni 80-yilargacha davom ettirgan. 50-60 yillarda esa adabiyotlarga tushkunlik, ikkilanish, norozilik ruhiyati sezila boshlanadi. Bular mamlakatning siyosiy ijtimoiy holati bilan bog‘liq edi.

Mamlakatning bir guruh yetakchi yozuvchilari tashabbusi bilan 1936 yili Hindistoi taraqqiyparvar yozuvchilar uyushmasi tashkil etilgan edi va

u R.Tagor, Sh.Lottopadxay, Nirala, Jaynendra Kumar kabi yirik badiiy soʻz ustalari tomonidan qizgʻin maʼqullandi.

Jaynendra Kumar asarlarida erkak va ayol munosabatlaridan yuzaga keluvchi psixologik muammolar falsafa, tavba-tazarru va chuqur afsus-nadomat nuqtai nazaridan tahlil etiladi. Inson tuygʻularini u yoki bu xarakter fazilatlarini ochib berishda yozuvchi realist sifatida namoyon boʻladi. Uning asarlaridagi xalqchilik ona diyor manzaralari va maishiy turmush voqeliklarining tasvirlanishida aks etadi. Maʼlumki, asarlardagi aynan shu fazilatlar tufayli ular qayta-qayta nashr etildi. Lekin shu bilan bir qatorda insonning yolgʻizliqdan xalos boʻlish yoʻlidagi izlanishlarida u ekzistensializm falsafasining va u bilan bogʻliq boʻlgan insonning jamiyatdan ajralib qolish kayfiyatini, azob chekish gʻoyalarini, haqiqiy hayotdan qochishga urinishni targʻib qilganligi uchun Jaynendra Kumar koʻpgina tanqidlarga ham uchraydi.

J.Kumar hikoyalarda asar asosiga qoʻyilgan barcha eng muhim voqealar inson psixikasidan oʻtkazilgan: uning koʻzlari, qarashlari orqali voqealar yoritilgan va qahramon tuygʻulari ochib berilgan.

Obraz yaratishda, uning hulq-atvor belgilarini tasvirlashda baʼzan yozuvchi qahramonning tashqi qiyofasi, yaʼni portret chizgilaridan ham foydalanadi. Maʼlumki, portret tasviri orqali personajlarning tashqi qiyofasi, hayotiy qarashlari, tabiati-yu, odob-axloqi, yoshi va boshqa xususiyatlari ham oydinlashadi. Ammo, kuzatishlarimizdan maʼlum boʻldiki, Jaynendra Kumarning aksariyat hikoyalarda qahramonning tashqi qiyofasi – portreti, kiyinishi va yurish-turishiga eʼtibor qaratavermaydi, koʻproq uning gap-soʻzi, atrofdagilar bilan munosabat-muomalasi, oʻy-fikrlarini tasvirlash orqali xarakter yaratadi.

Maʼlumki, psixologik tahlilda turli usullardan foydalaniladi. U muallifning bevosita mulohaza-mushoxadalari tarzida yoki qahramonlarning ichki kechinmalari yoxud bilvosita — ularning muallif tomonidan oldindan «tayyorlab» borilgan kitobxon tahliliy tadqiq eta biladigan hatti-harakatlari, qiliqlari orqali yuzaga keladi. Bu kabi barcha tahlil usullari orasida personajlarning tashqi va ichki nutqi (*dialog va monologi*) alohida oʻrin tutadi. Yozuvchining maqsadi uning portretini chizish bilan faqatgina uni tasvirlash emas, balki uning taʼrifi vositasida boshqa obrazni ochib berishdir. Tahlildan koʻrinib turibdiki, muallif ushbu

hikoya bosh qahramonning psixologiyasini sintetik prinsip orqali; yuqorida ko‘rgan epizodik qahramonning psixologiyasini esa dinamik prinsip asosida ochib beradi. To‘laqonli badiiy asar yaratish uchun qobiliyat shubhasiz zarurligini e‘tirof etgan mutafakkir yozuvchi 3 ta shartni ko‘rsatib o‘tadi.

1) muallif predmetga axloq nuqtai nazardan to‘g‘ri munosabatda bo‘lishi kerak;

2) bayon tushunarli yoki shaklan go‘zal bo‘lishi muhim, aslida, bularning ikkisi ham bir xil ma‘noni anglatadi;

3) samimiyat, ya‘ni san‘tkor o‘zi tasvirlanayotgan narsani yolg‘ondakam emas, balki chin dildan yaxshi ko‘rishi yoki undan nafratlanishi lozim [3, 117].

Umuman olganda, tarjima inson fe‘l-atvoriga doir jamiki xususiyatlarni badiiy aks ettirishi mumkin. Fe‘l-atvor haqida so‘z borganda sa har qanday hayotiy qadriyat axloqiy qadriyatga aylanadi. Binobarin, adabiyot bilan axloq o‘rtasida chambarchas bog‘liqlik bor.

Jaynendra Kumarning “Hurmatli boshliq” hikoyasining o‘ziga xos hususiyatlaridan biri kichik bir davlat idorasidagi bir lavxa orqali jamiyatdagi katta va muhim muammolar ya‘ni, hurmat, izzat, burch, insoflilik, hamdardlik munosabatlarning muhim ekanligi, insoniy tuyg‘ularning har narsadan ustun bo‘lishi kerakligi ko‘rsatilgan. Bu bilan muallif inson hayotidagi samimiy munosabatlar uni yuqori cho‘qqilarga olib chiqishi haqida so‘zlaydi. Asar yakunida mana shu masalaning nozik, psixologik muamolarning yechimini ochiq qoldirgan. Demak, bu bilan muallif: munosabatlar qanday bo‘lishi kerak? degan savolni ko‘ndalang qo‘yish bilan cheklangan xolos. Unga javob topishni kitobxonga qoldirgan.

“Hurmatli boshliq” nomli hikoyasi sodda, o‘quvchiga tushunarli tilda yozilgan. Umuman olganda bu hikoyada muallif nutqiga nisbatan diolog ko‘p ishlatilgan bo‘lib, shuningdek, muallif asar tilining ta‘sirchanligini oshirishda solishtirish, qiyoslash, iboralardan ham keng foydalanadi:

1. उषा बत बनी अपनी जगह खड़ी रह गई। [4, 9] “*Usha sanamdek joyida turib qoldi*”

2. उषा चित्र लिखी- सी महामहिम को देखती रही। [4, 11] “*Usha surat chizayotgandek boshliqqa tikilib qoldi*”

Bu jumlar orqali yozuvchi portret yaratishda badiiy vosita va oʻxshatishlar-dan unumli va oʻz oʻrnida foydalangan. Hikoya badiiyati kuchli boʻlib, oddiy oʻxshatish vositalari butun bir voqea va ijtimoiy vaziyatni, insoniy his tuygʻu va ularning xususiyatlarini ochib bera olgan.

Jaynendra Kumarning “Ogʻriq” (कष्ट) nomli ikkinchi hikoyasi tili sof hindiy tilida yozilgan boʻlib, kitobxon uni toʻgʻridan-toʻgʻri tushuna olmaydi va lugʻat yordamisiz uni erkin tarjima qila olmaydi. Negaki muallif tanlagan deyarli har bir soʻzning kamida 3-4 ta alohida maʼnosi mavjud. Hikoyadagi avtor tilida asosan juft birikmalarni uchratishimiz mumkin.

3. देखते-देखते, सोते-सोते, हक्क-बक्का [5, 62] (*koʻrib-koʻrib, uxlab-uxlab, hang-mang*)

4. फिकर-फिकर में जाने क्या-क्या देख जाते हो? [5, 75] *Xavotirda kim bilsin koʻzga nimalar koʻrinmaydi?*

Takroriy soʻzlarda aynan bir soʻzning takror holda qoʻllanilishi natijasida gramatik maʼno anglatilib, u asardagi qahramon psixologiyasini mana shu birikmalar yordamida aks ettirishga xizmat qiladi [6, 15].

Jaynendra Kumar hikoyalarining alohida ajralib turadigan hislati shundaki, u insonlar ruhiyati, ichki dunyosi, dardu-alamlarini psixologik tahlil elementlari ichki monolog, nutqiy xarakteristika, takror soʻzlar, koʻp nuqta, fraziologik birikmalar va boshqa tasviriy ifodaviy vositalar yordamida aks ettirib, inson psixologiyasini mohirona tasvirlash bilan uygʻunlashtiradi.

Hind psixologik roman va hikoyalari oʻz rivojida gʻarb va rus tajribasini olgan, biroq, bu Hindiston tarixiy, madaniy muhitda va hind estetikasiga mos boʻlgan oʻz qonunlari boʻyicha rivojlanayotgan mustaqil yoʻnalishi hisoblanadi. Hindiy hikoyanavislari zamonamizning muhim masalalarini yechish uchun, inson ichki dunyosini, har gal yanada chuqurroq ochib berish maqsadidan, uning hayot mezonini aniqlashda oʻz uslublarini tanlaganlar. Bu uslub orqali ular hayotning tugunlariga adabiy yechim topishga intiladilar.

Jaynendra Kumar insonlar ruhiyati, ichki dunyosi, dardu-alamlarini psixologik tahlil elementlari ichki monolog, nutqiy xarakteristika, takror soʻzlar, koʻp nuqta, fraziologik birikmalar va boshqa vositalar yordamida aks ettirib, ularning psixologiyasini mohirona tasvirlaydi. U hech bir qahramonining portretini yaratmaydi, yoshiga ham toʻxtalib oʻtmaydi. U

inson qalbini, ichki dunyosini chizadi. Qalbning esa yoshu qarisi bo'lmaydi. Bu yo'l qahramonlarning asl maqsadiga yetishish uchun, ularning psixologik xis tuyg'ularini tushunishda, o'zining hayotga bo'lgan shaxsiy qarashlarini, boshqacha aytganda, bu mujmal, qiyin hayot haqiqatini tushunish yozuvchining o'ziga xos qurolidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES)

1. Шодиев Н. “Рухият рассоми”.-Т., 1977. –56б.
2. Современная индийская проза. -М.: ИВА.1962.
3. Основные направления в индийской литературе XX в.-М.,1977.
4. Эминова.С.П. Психологический роман хинди. Традиции и современность в новом романе хинди.– М.,1983.
5. Гинзбург. Л.Я. О психологической прозе//Л.Художественная литература. 1977.
6. Егер Г. Коммуникативная и функциональная эквивалентность// Вопросы теории перевода в зарубежной лингвистике. –М., 1978.–115 с.
7. Комиссаров В.Н. Слово о переводе. –М.: Международные отношения, 1973. – 216 с.
8. Художественные направления в индийской литературе XX в.-М., 1977.
9. Чернышев.В. Роман об индийской деревне. Иностранная литература.- М.,1958.
10. Эминова С.П. Психологический роман хинди. Традиции и современность в новом романе хинди.– М.,1983.
11. Чельшев Е.П. Индийская литература вчера и сегодня.- М., 1989.
12. Серебриков И.Д. Литературы народов Индии.-М., 1985.
13. जैनेन्द्र कुमार. जैनेन्द्र की कहानियाँ. दिल्ली, १९७८
14. जैनेन्द्र कुमार. जैनेन्द्र के विचार. दिल्ली १९६७
15. भारतीय कहानी. दिल्ली १९७६
16. नाम्बर सिंह -दूसरी परम्परा की खोज १९८९
17. नाम्बर सिंह -अस्वीकार का खोज १९८९
18. Ochilov, E. (2014). Translation theory. Tashkent: Institute of Oriental Studies.
19. Khodjaeva, N. (2019). SEMANTICS OF KINSHIP TERMS AS A FORM OF ADDRESS IN UZBEK TRANSLATIONS OF PREMCHAND. Theoretical & Applied Science, (8), 107-110.
20. KHODJAEVA, N. B. (2021). PREMCHAND'S VARDAN IN UZBEKISTAN: TRANSLATION ISSUES OF SOME CULTURAL SPECIFIC WORDS. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука, (12), 374-377.

-
21. KHODJAEVA, N. The Development of Indian Literature in Uzbekistan: Historiography of Translation. History of Translation in India, 431.
 22. Ходжаева, Н., & Губаева, Х. (2020). ISSUES ON TRANSLATION OF CHARACTER SPEECH (ON THE EXAMPLE OF KOREAN-UZBEK LITERATURE). МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА, 3(4).
 23. Khodjayeva, N. (2021). The issues of stylistics on translation of historical costumes. ASIAN JOURNAL OF MULTIDIMENSIONAL RESEARCH, 10(4), 534-543.
 24. www.wikipedia.com
 25. www.kniga.uz
 26. www.hindwi.org/poets/sarveshwar-dayal-saxena/ebooks